

MUSTAQIL TA'LIMDA BILISH FAOLIYATI MOTIVATSIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada talabalar mustaqil bilish faoliyatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati, mustaqil bilish faoliyati motivatsiyasining mohiyati to'g'risidagi nazariy yondashuvlar tahlili, unui tarkibiy komponentlar, rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkichlari, mustaqil bilish faoliyati motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillarning tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil bilish faoliyati, mazmuniy-operatsion komponent, motivatsion-irodaviy komponent, refleksiv komponent, motivatsiya, kognitiv.

ЗНАЧЕНИЕ МОТИВАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМ ОБУЧЕНИИ

Аннотация. В статье раскрывается сущность феномена мотивации познавательной деятельности студентов в процессе самообразования. Анализируется различные подходы к проблеме познавательной самостоятельности, даётся характеристика компонентов, факторов, критерий оценки выявления уровня сформированности мотивов познавательной деятельности в процессе самообразования студентов.

Ключевые слова: познавательная самостоятельность, содержательно-операционный компонент, мотивационно-волевой компонент, рефлексивный компонент, мотивация, когнитивный показатель.

THE IMPORTANCE OF THE MOTIVATION OF COGNITIVE ACTIVITY IN INDEPENDENT EDUCATION

Annotation. The article reveals the essence of the phenomenon of motivation of cognitive activity of students in the process of self-education. Various approaches to the problem of cognitive independence are analyzed, characteristics of components, factors, and criteria for assessing the level of formation of cognitive activity motives in the process of students' self-education are given.

Keywords: cognitive independence, content-operational component, motivational-volitional component, reflexive component, motivation, cognitive indicator.

Kirish. O'quv jarayoni muayyan maqsadni amalga oshirishga, ya'ni shakllangan ustuvorliklar, xulq-atvor qoidalari, qadriyatlar tizimi va butun dunyo haqidagi to'g'ri tasavvurlarga ega ko'p qirrali, ijodiy shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratilgan. Pedagogning har qanday faoliyati maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi nafaqat o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qiladi, balki boshqaradi. Bilish faoliyatining samaradorligi talabaning o'z harakati va intilishlariga bog'liq hisoblanadi. O'zini o'zi tayyorlashning to'g'ri tashkil etilishi ta'lim oluvchining yetakchi xususiyatlaridan biri sifatida mustaqillikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Psixologik adabiyotlar tahlili asosida mustaqil bilish faoliyatini talaba shaxsining integratsiyaviy xususiyati sifatida ko'rib chiqib unga xos quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- bilish faoliyatini o'zi xoxlab va alohida tayyorgarlik bilan tashqi yordamsiz ta'lim jarayonining boshqa sub'ektlari (o'qituvchi, talabalar) bilan hamkorlikda amalga oshirish;
- bilimlarni turli manbalardan tayyor shaklda emas, balki ularni aqliy qayta ishlash orqali

olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- bilish faoliyati operatsion ko'nikma va usullariga asoslanish;
- mustaqil fikrlash;
- o'quv faoliyatining ijobiy motivatsiyasi;
- o'zini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi tahlil qilish, o'z o'zini baholash va o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyati;

-o'zini o'zi yanada takomillashtirishga bo'lgan qobiliyatlilik [2].

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda A.E.Bogoyavlenskaya, bilish faoliyatidagi mustaqillikning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratgan:

1. Motivatsion-irodaviy komponent- mustaqil bilish faoliyatiga undovchi motivatsiya va uni amalga oshirish uchun irodaviy zo'r berishni ifodalaydi.

2. Mazmuniy-operatsion komponent - bilimning hajmi va sifati, bilish faoliyati ko'nikmalarining egallanganlik darajasini tavsiflaydi.

3. Refleksiv komponent - o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi tahlil qilishga tayyorlik va qobiliyatni aks ettiradi [1].

Talaba mustaqil ta'limning ahamiyati bir o'quv predmeti doirasidan tashqariga chiqib, mustaqillik shaxsning muhim xarakter xususiyati sifatida fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish, o'z fikrini shakllantirish, boshqalar tomonidan o'rnatilgan qarashlardan qat'i nazar, o'z tashabbusi bilan harakat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Mustaqil ta'limning mohiyatini nazariy jihatdan o'rganib, uning rivojlanishi mumkin bo'lgan faoliyatning- bilish, amaliy va tashkiliy-texnik yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Mustaqil faoliyat jarayoni: motiv - reja (harakat) - natija uchlik shaklida namoyon bo'ladi.

Talaba jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo'lgandagina mustaqil ta'limni bajarishda faollik ko'rsatadi.

Shaxsni o'qitish va tarbiyalashda muvaffaqiyat to'g'ridan-to'g'ri motivatsiyaga, ya'ni bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, muayyan shaxsiy fazilatlarni egallash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini oshirish uchun muhim va samarali motivlarning mavjudligiga bog'liq.

Ta'lim motivatsiyasi talabalarning ta'lim jarayonining turli tomonlarini, uning mazmuni, shakllari, tashkil etish usullarini shaxsiy individual ehtiyojlari va maqsadlari nuqtai nazaridan baholashdan iborat bo'lib, ular ta'lim maqsadlariga to'g'ri kelishi yoki mos kelmasligi ham mumkin.

Talabalarning motivatsion sohasi juda o'zgaruvchan bo'lib, agar o'quv faoliyati o'quvchilar qo'shimcha mazmun topadigan ijodiy, shaxsiy ahamiyatga ega jarayon sifatida tashkil etilsa ijobiy motivatsiya o'quv faoliyati davomida paydo bo'lishi mumkin.

Eng kuchli motivatsiyalovchi omil kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beruvchi omillar:

1. Bajarilgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ishining natijalari darsda materialni tushuntirishda, uslubiy qo'llanmada, laboratoriya ishida, maqolalar tayyorlashda yoki boshqa usulda qo'llanilishini bilsa, u holda topshiriqni bajarishga munosabati yaxshi tomonga sezilarli darajada o'zgaradi va bajarilgan topshiriqning sifati oshadi. Shu bilan birga, talabani psixologik jihatdan tayyorlash va bajarilayotgan ishning qanchalik zarurligini ko'rsatish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilik omilini qo'llashning yana bir ko'rinishi - kasbiy tayyorgarlikda mehnat natijalaridan faol foydalanishdir. Jumladan, agar talaba kichik kurslardan birida diplom (malakaviy) ishi uchun topshiriq olgan bo'lsa, u bir qator o'quv fanlari bo'yicha mustaqil topshiriqlarni bajarishda, keyinchalik esa ularni malakaviy ishiga bir bo'lim sifatida kiritishda foydalanishi mumkin.

2. Talabalarning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu ilmiy-tadqiqot faoliyati, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari yoki uslubiy ishlardagi ishtiroki bo'lishi mumkin.

3. Jadallashgan pedagogika muhim motivatsion omil hisoblanadi. U ta'lim jarayoniga faol usullarni, birinchi navbatda, innovatsion o'yinlarga asoslangan trening mashg'ulotlarini joriy

212 qilishni o'z ichiga oladi. Bunday o'yinlarda bir tomonlama chegaralangan bilimlardan ob'ekt haqida ko'p tomonlama bilimlarga o'tish, shunchaki qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash emas, undagi yetakchi qarama-qarshiliklar aniqlab modellashtirishni o'rganadi.

4. O'quv fanlari bo'yicha olimpiadalarda, ilmiy tadqiqot yoki amaliy ishlar tanlovlarida qatnashish va boshqalar.

5. Bilimlarni nazorat qilish uchun rag'batlantiruvchi omillardan foydalanish (baholash, reyting, testlar, nostandart imtihon amaliyoti). Bu omillar, ma'lum sharoitlarda raqobatga intilishni keltirib chiqarishi mumkin, bu o'z-o'zidan talabani o'zini o'zi takomillashtirishi uchun kuchli motivatsion omil hisoblanadi.

6. Talabalarni o'quv muvaffaqiyati va ijodiy faolligi uchun rag'batlantirish hamda yomon o'qiganligi uchun sanksiyalar. Xususan, muddatidan avval topshirilgan vazifa uchun yuqori baho qo'yish, aksincha vaziyatda esa bahoni pasaytirish mumkin.

7. Jadal o'quv faoliyatining birinchi navbatdagi va mustaqil omili o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi ta'lim oluvchiga kasb egasi, ijodkor sifatida namuna bo'la oladi. Pedagog talabalarga o'zining ijodiy salohiyatini ochib berishga, ichki o'sish istiqbollarini aniqlashga yordam berishi mumkin [4].

Tadqiqotchilar tomonidan mustaqil bilish faoliyatining turli daraja, ko'rsatkich va mezonlari ajratib ko'rsatilgan.

G.I.Shukina o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar mustaqil bilish faoliyatining reproduktiv-imitativ, izlanuvchanlik-ijro etuvchilik va ijodiy faollik darajalarini ajratib ko'rsatgan [4].

T.I.Shamova, mustaqil faollikning: qayta tiklovchi, talqin qiluvchi va ijodiy darajalarda namoyon bo'lishini ta'kidlagan [4].

G.I.Saransev o'quvchilarning mustaqil bilish faolligi shakllantirishini yuqori, o'rta va past darajaga ajratadi. Yuqori darajada- mustaqillik hamma sohada namoyon bo'ladi, talaba muammoni hal qiladi va hal qilishning oqilona yo'lini topa oladi, o'zini o'zi nazorat qiladi, o'z ishini qanday baholashni biladi, axborotni mustaqil izlaydi, internet resurslaridan erkin foydalanadi; o'rtacha darajada – ko'p bo'lmagan miqdorda o'qituvchining tavsiyasi va tuzatishi kerak bo'ladi; past darajada- o'qituvchining majburiy ishtiroki talab qilinadi: pedagogning aytib turishb, nazorat qilishi, reproduktiv tabiatdagi vazifalarni borishida namoyon bo'ladi [3].

G.A. Aleksanyan bulutli texnologiyalardan foydalangan holda yagona axborot muhitida talabalarining mustaqil bilish faolligini shakllanganlik darajasini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlagan:

- 1) motivatsion- yagona axborot muhitida mustaqil ishlarni amalga oshirishga qiziqish;
- 2) kognitiv- yagona axborot muhitida olingan bilimlar tizimining mavjudligi;
- 3) faoliyatli- yagona axborot muhiti doirasida mustaqil faoliyatni tashkil etish jarayonida o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish va fan mazmunining alohida masalalarini chuqur o'rganish qobiliyati;

- 4) refleksiv-baholash- o'zining mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish, faoliyati natijalariga ob'ektiv baho berish qobiliyati.

Masofaviy ta'limning asosiy muammolaridan biri talabalarda o'quv faoliyati motivatsiyasining pasayishidir. Internet-muloqotning "sun'iy muhitida" talaba va o'qituvchi o'rtasida yuzma-yuz o'zaro ta'sir bo'lmaganligi sababli ta'lim jarayoniga kirishish asta-sekin kamayadi. O'quv dasturini o'zlashtirish va imtihonlarni topshirishga diqqatni jamlash qiyinlashadi, bu esa ta'limda uzilish bo'lish xavfini oshiradi.

Motivatsiyani saqlab qolish masofadan turib o'rganishning eng qiyin qismidir. Elektron kurslarni o'zlashtirishning muvaffaqiyati bevosita shu jarayonda ishtirok etish darajasiga bog'liq. Shuning uchun, o'quv dasturlar yaratuvchilari oldida turgan asosiy masala – mazkur dasturlarni mazmunli, qiziqarli va idrok qilish uchun qulayligini ta'minlashdir.

Xulosa. Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar ikkita bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan vazifani bajarishlari -o'quv materiallarini optimallashtirish va motivatsiyani oshirish uchun maxsus modelni qabul qilish kerak. Tavsiya etilgan shartlarga rioya qilish, mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarda bilim olish, doimiy takomillashtirish, o'zini o'zi o'qitish, o'zini

o'zi tarbiyalash va o'zini o'zi tashkil qilish uchun kuchli motivlarni rivojlantiradi. Talabalarning mustaqil bilish faoliyati motivlarini to'g'ri aniqlash, uning yo'naltiruvchiik vazifasidan to'liq foydalanish, barqaror ijtimoiy motivlarni rivojlantirish, unga ijobiy ta'sir etuvchi omillarning ahamiyatini oshirish bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi va o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богоявленская А.Е. Развитие познавательной самостоятельности студентов: Тверь, 2004. — 160 с.
2. Болотский А.А. Диагностика сформированности познавательной самостоятельности студентов // Молодой ученый. 2016. № 12(116). С. 81–88.
3. Занозин Д.А. Использование интернет - технологий в организации самостоятельной учебной работы студентов // Среднее профессиональное образование. 2011. № 3. С. 66 – 68.
4. Измайлова М.А. Организация внеаудиторной самостоятельной работы студентов. Москва: Дашков и К, 2008. 104 с.